

**40929022 - SON**  
**TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI KO'RSATILISHI**  
**TO'G'RISIDA**  
**ABONENT SHARTNOMASI**  
**Yuridik shaxslar (shu jumladan, byudjet tashkilotlari) uchun**

**2022-yil 07-yanvar**

***Urgut t.***

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi (keyingi o‘rinlarda-Kompaniya) nomidan 2021-yil 18-oktyabrdagi 27-01-14/5073-sod ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi Kompaniyaning Samarqand filiali direktori **Eshnazarov Nodirbek Tirkashevich** (keyingi o‘rinlarda-Operator) bir tomonidan va **Urgut tuman MTB** nomidan Ustav (Nizom, ro‘yxatga olinganlik to‘g‘risidagi guvohnoma, ishonchnoma) asosida faoliyat yurituvchi **J.Z.Zoitov** (keyingi o‘rinlarda-Abonent) ikkinchi tomonidan, (keyingi o‘rinlarda birgalikda-Tomonlar) telekommunikatsiya xizmatlar ko‘rsatilishi bo‘yicha quyidagilar haqida Abonent Shartnomasini (keyingi o‘rinlarda Shartnoma) tuzdilar:

### **1.1 Shartnoma predmeti**

#### **1.2 Abonent ushbu Shartnomani imzolab:**

-Operatorning WWW.UZTELECOM.UZ rasmiy veb-saytida e’lon qilingan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 367-369-moddalariga muvofiq “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasining telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish to‘g‘risida abonent Shartnomasini tuzishga rasmiy ommaviy taklifi bo‘lgan Ommaviy ofertasini (keyingi o‘rinlarda — Oferta) shartlari bilan to‘liq tanishib chiqqanligini tasdiqlab, ushbu Oferta shartlari asosida Operator bilan telekommunikatsiya xizmatlari ko‘rsatilishi to‘g‘risida Shartnoma tuzadi;

-Operator tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun Abonent Dastlabki avans to‘lovini amalga oshirishi va to‘lov faktini tasdiqlovchi tegishli moliyaviy hujjatni olishi Operator Ofertasining shartlarini so‘zsiz qabul qilishi (akseptini) hisoblanadi.

**1.3** Tomonlar Ofertaning 2-moddasida ko‘rsatilgan maqsadlarda ushbu Shartnomani imzolaganidan so‘ng, Operator Abonentga identifikatsiya raqamini beradi. Identifikatsiya raqami berilganidan so‘ng, Abonent, Operator tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar ro‘yxati doirasida o‘z tanlovidan kelib chiqib, Dastlabki avans to‘lovini amalga oshirishi mumkin.

**1.4** Xizmat ko‘rsatish shartlari Ofertaning 3-moddasida belgilangan asoslarda va Abonent tomonidan tanlangan xizmat turi hamda ushbu xizmatni taqdim etish uchun texnik imkoniyatlar mavjudligidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

### **2. Tomonlarning huquq va majburiyatları**

**2.1** Operator ushbu Shartnomani imzolagan vaqtidan boshlab, Ofertaning 4-moddasida belgilangan huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladi.

**2.2** Abonent ushbu Shartnomani imzolagan vaqtidan boshlab, Ofertaning 5-moddasida belgilangan huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladi.

**2.3** Tomonlar ushbu Shartnoma amal qilish davrida, o‘z huquq va majburiyatlariga qatiy rioya etilishini ta’minlash yuzasidan zarur choralarini amalga

oshiradilar.

### **3. Hisob-kitob va to‘lovlar tartibi**

**3.1** Mazkur Shartnomaga bo‘yicha Ofertaning 6-moddasiga muvofiq, xizmatlar (mobil aloqa xizmati bundan mustasno) ko‘rsatilganidan keyin to‘lovni amalga oshirish (Postpaid) tizimi shartlari tatbiq etiladi.

**3.2** Tariflar Abonent bilan Shartnomaga tuzilganda va Operator xizmatlaridan foydalanish jarayonida Abonent bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun majburiydir. Xizmatlar uchun barcha tariflar milliy valyutada ko‘rsatiladi va ushbu Shartnomaga tuzilgan vaqtida belgilangan barcha soliqlar va yig‘imlarni o‘z ichiga oladi.

**3.3** Xizmatlardan foydalanish uchun Abonent to‘lovi birinchi oyda ushbu Shartnomaga tuzilgan sanadan boshlab 3 (uch) bank kuni mobaynida amalga oshiriladi.

**3.3.1** Ilk bor ulanishda Abonent to‘lovi 100 (bir yuz) foiz miqdorida oldindan to‘lanadi. Dastlabki avans to‘lovi oldindan to‘lov bo‘yicha talabnomaga (hisob) asosida hamda ushbu Shartnomaning tegishli ilovasida (Abonent tomonidan tanlangan xizmat turi bo‘yicha) ko‘rsatilgan miqdorga muvofiq har bir tanlangan xizmat turi uchun asosida amalga oshirilishi mumkin.

**3.4** Byudjet tashkiloti bo‘lgan Abonent uchun Shartnomaning umumiyligi summasi ushbu Shartnomaning tegishli ilovasiga (Abonent tomonidan tanlangan xizmat turi bo‘yicha) muvofiq ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi bilan belgilanadi.

Shartnomaning umumiyligi summasi (QQSni hisobga olgan holda) 19 200 000 so‘mni tashkil etadi.

Ushbu summa 19 200 000 so‘m miqdoridagi Abonent to‘lovini hamda 19 200 000 miqdoridagi bir martalik to‘lovni o‘z ichiga oladi.

**3.4.1.** Mazkur Shartnomaning umumiyligi summasi oshib ketgan taqdirda, ortiqcha summa Tomonlar o‘rtasida imzolangan qo‘srimcha kelishuv/taqdim etilgan hisob-faktura asosida to‘lanadi.

**3.5** Abonent ushbu Shartnomaga asosan yoki berilgan hisob-faktura asosida har oyda Operator tomonidan hisob-faktura berilgan kundan boshlab 3 (uch) bank kuni ichida ushbu Shartnomada ko‘rsatilgan Operatorning Shaxsiy (elektron) hisob raqamiga pul mablag‘larini o‘tkazish yo‘li bilan Operator tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar haqini to‘laydi.

**3.6.** Agar Abonentning Shaxsiy (elektron) hisob raqamida xizmatlar ko‘rsatish uchun yetarli mablag‘ bo‘lmasa yoki mazkur Shartnomaning 3.5-bandida ko‘rsatilgan muddatda har oylik hisob-faktura bo‘yicha to‘lov amalga oshirilmagan bo‘lsa, Operator ushbu Shartnomaga bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatilishini to‘xtatishi mumkin.

**3.7** Operator tomonidan ulangan va taqdim etilgan xizmatlardan Abonent tomonidan foydalanilmasligi, Abonentga ushbu xizmatlar uchun to‘lovlarini amalga oshirmsasligiga asos bo‘la olmaydi.

**3.7.1** Agar Abonent Operator xizmatlaridan foydalanishni vaqtincha to‘xtatishni, shuningdek, hisobot davri (kalendor oy) uchun istalmagan to‘lovarning oldini olishni istasa, Abonent hisobot oyining 1-kunidan oldin xizmatlarni ixtiyoriy ravishda blokirovka qilish uchun ariza topshirishi kerak. Blokirovka qilish tartibi Oferta qoidalari bilan tartibga solinadi.

**3.8** Operatordan bonuslar ko‘rinishida reklama aksiyalari doirasida Abonentga taqdim etilgan barcha mablag‘lar faqat Operator xizmatlari uchun to‘lanishi mumkin va Shartnoma bekor qilinganda Abonentga pul shaklida to‘lanmaydi yoki qaytarilmaydi.

**3.9** Operator tomonidan taqdim etilgan xizmatlar, Shartnomaga muvofiq har bir xizmat turi uchun alohida rasmiylashtiriladigan hisob-faktura bilan yopiladi. Har bir hisob-fakturada taqdim etilgan xizmatlarning to‘liq kalendar oyi uchun umumiy miqdori ko‘rsatiladi

**3.9.1** Agar Abonent 10 (o‘n) ish kuni mobaynida Operator tomonidan taqdim etilgan hisob-faktura bo‘yicha o‘z e’tirozlarini yozma yoki elektron shaklda taqdim etmasa, ushbu xizmat turi bo‘yicha hisob-faktura qabul qilingan va xizmatlar tegishli tarzda ko‘rsatilgan deb hisoblanadi. Abonentning e’tirozlarini asoslantirilgan taqdirda, Operator keyingi kalendar oyida taqdim etiladigan xizmatlar uchun to‘lov talabnomasida (hisobida, hisob-fakturada) tegishli tuzatishlarni amalga oshiradi.

**3.9.2** Ofertaning 6.15-kichik bandida belgilangan tartibda, Abonentning Shaxsiy (elektron) hisob raqamining balansi salbiy bo‘lganida 1 (bir) kalendar oydan oshmagan muddatga Abonentning kafolat xati asosida Operator tomonidan Abonentga xizmatlardan foydalanish imkoniyati berilishi mumkin.

#### **4. Tomonlar javobgarligi**

**4.1** Tomonlar Ofertaning 8-moddasiga va ushbu Shartnomaga muvofiq belgilangan majburiyatlarni bajarmaganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari hamda Ofertada nazarda tutilgan tartibda va miqdorlarda javobgar bo‘ladi (Tomonlarga nisbatan javobgarlikning cheklanish holatlari bundan mustasno).

#### **5. Nizolarni hal qilish tartibi**

**5.1** Tomonlarning ushbu Shartnomani bajarish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha barcha nizolari va kelishmovchiliklari Ofertaning 11-moddasi talablari asosida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hamda nizolarni sudgacha hal etish tartibiga rioya qilingan holda o‘zaro kelishuv orqali hal qilinadi.

**5.2** Tomonlar o‘rtasida yuzaga kelgan nizo va kelishmovchiliklarni o‘zaro kelishuv orqali hal etishning imkonи bo‘lmagan taqdirda, nizolar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida ko‘rib chiqiladi.

#### **6.Alovida shartlar**

**6.1** Tomonlar mazkur Shartnomaning amal qilish davrida o‘z huquqlari va majburiyatları bilan bog‘liq ravishda O‘zbekiston Respblikasining korrupsiyaga qarshi kurashishni tartibga soluvchi qonun hujjatlari normalarini buzishi mumkin bo‘lgan har qanday choralar ko‘rmasliklari yoki xatti-harakatlarni sodir etmasliklari yuzasidan majburiyatlarini qat’iy e’tirof etgan holda, o‘zaro hamkorlik madaniyatini yuqori darajada ta’minalash va korrupsiya holatlariga murosasiz kurashish choralarini ko‘radi.

**6.1.2** Mazkur Shartnomaning amal qilish davrida Tomonlarning irodasi va faoliyatlariga bog‘liq bo‘lmagan har qanday holatlarda va xodisalarda (yengib bo‘lmaydigan kuchlar/fors-major holatlari) Ofertaning 10-moddasi qoidalariga

amal qilinadi.

**6.2** Abonentning yozma/elektron shaklda taqdim etilgan ariza/e'tiroznomalar/shikoyat/taklif ko'rinishidagi murojaati ko'pi bilan 30 (o'ttiz) kun davomida ko'rib chiqiladi va tegishli shaklda javob beriladi. Bunda murojaatni ko'rib chiqish uchun 15 (o'n besh) kundan ortiq muddat talab etilsa, Abonent (murojaat muallifi) Operator tomonidan bu haqda majburiy ravishda xabardor qilinadi.

## **7. Yakuniy Qoidalar**

**7.1** Ushbu Shartnomaning barcha muhim shartlari Ofertaga muvofiq belgilanadi. Ushbu Shartnomada yoki Ofertada nazarda tutilmagan hollarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariiga amal qiladi.

**7.2** Ushbu Shartnoma Tomonlar o'rtasida imzolangan paytdan boshlab, kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabrga qadar amal qiladi. Agar, Shartnomaning belgilangan amal qilish, muddati tugaganidan so'ng, Tomonlar (byudjet tashkiloti bo'lgan Abonentga tadbiq etilmaydi) o'z shartlarini bajarishni davom ettirsa va Tomonlarning hech biri uning bekor qilinishini e'lon qilmagan bo'lsa, Shartnoma har bir keyingi yilga uzaytiriladi.

**7.2.1** Byudjet tashkiloti bo'lgan Abonent uchun ushbu Shartnoma vakolatlari davlat organlarida ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 20 yilga qadar amal qiladi.

**7.2.2** Abonent tomonidan ushbu Shartnomaning imzolanishi - Oferta akseptini (Abonentning Oferta shartlarini qabul qilganligi haqidagi javobini) bildiradi.

**7.3** Ushbu Shartnoma, shu jumladan, Operatorning rasmiy veb-saytida e'lon qilingan Oferta, ilova va qo'shimchalar (agar mavjud bo'lsa) Shartnoma predmeti yuzasidan Operator va Abonent o'rtasida to'liq Shartnomani tashkil etadi.

**7.4** Tomonlarning manzillari va bank rekvizitlari, ularning ta'sis hujjatlari (mulkdorlari) o'zgargan taqdirda, shu jumladan tashkiliy-huquqiy shaklining o'zgarishi va boshqa o'zgarishlar ro'y bergan taqdirda, Shartnoma o'z kuchida qoladi. Tomonlar bunday o'zgarishlar amalga oshirilgan kundan boshlab, 10 (o'n) kalendar kun ichida bir-birlarini xabardor qilishlari shart.

**7.5** Ushbu Shartnomaga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilganda (agar ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan bo'lsa) va ushbu harakatlar Tomonlarning vakolatlari shaxslari tomonidan imzolangan hamda Tomonlarning muhrlari (mavjud bo'lgan taqdirda) bilan tasdiqdangan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

**7.6** Ushbu Shartnoma davlat tilida, 2 (ikki) nussada rasmiylashtirilgan bo'lib, bir hil yuridik kuchga ega va har bir Tomon uchun bitta nussadan beriladi.

## **8. Tomonlarning manzillari va bank rekvizitlari:**

**OPERATOR:**  
**“O‘zbektelekom” AK**  
**Samarqand filiali**

Manzil: Samarkand sh. M.Ulg‘bek 92-uy  
Bank ma’lumotlari:  
x/r: 20210000804074838397  
STIR:203366731  
MFO:00401; ATB “Aloqabank”  
Tel:(66) 240-00-11 (66) 234-75-74  
(66) 234-75-53



[ecom.uz](http://ecom.uz)  
**Eshnazarov N.T.**

**ABONENT:**  
**Urgut tuman MTB**

Manzil:Urgut tuman Navoiy shoh ko‘chasi 156-uy  
Bank ma’lumotlari:  
x/r: 100022860182367091100251001  
STIR: 207266806  
MFO: 00014  
Bank nomi:Markaziy bank Toshkent HKKM  
Tel: E-mail: \_\_\_\_\_

**J.Z.Zoitov**

